

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING ISH HUJJATLARI

Madaminova Malohat Abduraxim qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi

Tel: +998-93-273-65-68

E-mail: @madaminovorifjon77@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu mqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining ish hujjatlari, ulardan foydalanishning usul va vositalari haqida batafsil bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье подробно описаны рабочие документы организации дошкольного образования, методы и средства их использования.*

Abstract: *This article describes in detail the working documents of the preschool education organization, the methods and means of their use.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, ish hujjatlar, bola, boshqaruv hujjatlari.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, деловые документы, ребенок, распорядительные документы.*

Key words: *Pre-school education, business documents, child, administrative documents.*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi o'bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti binolarida xavfsizlikni tashkil etishga

oid talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tashkilotlarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ni tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta'lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida Nizom dan bilib olishimiz mumkin. Muhtaram prezidentimiz tomonidan

O'zbekiston Respublikasida hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartish va qo'shimcha kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida 2019-yil 16- dekabrda O'RQ-595-son qonuni),

O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019- yil 14 -dekabrdagi qarori chiqdi.[1]Bunday qonunlar esa Maktabgacha ta'lim tizimining yanada yuksalishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'limda ish hujjatlari,pedagoglar uchun ancha samarali va qo'l keladi. Bu ish hujjatlar pedagog xodimlarning ish faolyatini yanada yaxshilash, vaqtini to'g'ri taqsimlash,ish samaradorligini oshirish,dars mashg'ulotlarini taqsimlash uchun qo'llab kelinmoqda.Pedagog amalyota o'tib borayotgan mashg'ulot ishlanmasini doimo yozib,bolarda qanday o'zgarishlar borligini yozib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlar padagog xodimlarning ish hujjatlarini yuritilishi bo'yicha qo'llanma 2-ilovoga muvofiq tasdiqlandi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarning ish hujjatlari ro'yxati quydagi tarkibni tashkil etadi.

1. 01-Boshqaruv hujjatlari.
2. 02 -Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar.
3. 03- Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari.
4. 04- Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti.
5. 05-Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi.
6. 06-Maktabgachi ta'lim tashkiloti psixoligi.
7. 07-Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari.

8. 08-Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi.

9. 09-Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defaktologi.

10. 10-Maktabgacha ta'lim tashkiloti til o'qituvchisi.

11. 11-Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 30-avgustdagi 155-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarning ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida gi buyrug'ning 1-ilovasining 04-Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti" qismida MTT metodistning ish hujjatlar ro'yhati berilgan.

04-Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

04-01 [Davlat talablar,uquv dasturlari va metodik qo'llanmalar]

04-02 [Metodistning shaxsiy ish rejasi(ish jurnali)]

04-03[Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ish reja]

04-04[Bolaning rivojlanish xaritasi yuritilishini nazorat qilish kitobi]

05-Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

05-01[Davlat talablari,o'quv dasturlari,metodik qo'llanma va tavsiyalar]

05-02[Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi(ish jurnali)]

05-03[Bolalar davomatini qayt etish daftari(table,filtir,patronaj,va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar)]

05-04[Bolaning rivojlanish xaritasi]

05-05[pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi]

05-02. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali). Jurnalning titul varag'idan keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo'lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o'quv yilida o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalari yoritiladi.[2] Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o'zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlari yoritiladi.Guruh yoshiga va MTTning ish vaqtiga qarab kun tartibi belgilanadi. Bir oy uchun 2 ta ertalabki badan tarbiya komplekslari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar bilan ertalabki badan tarbiya mashqlari bajarilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Ertalabki badan tarbiya mashqlarini alohida daftarga yozib borish yoki oldindan kartotekalar tayyorlab olish maqsadga muvofiq.Keyingi varaqlarda tarbiyachining ta'limiy-tarbiyaviy faoliyati aks ettirilib, hafta mavzusi, davr ko'rsatiladi. Ertalabki doirada bolalar bilan olib boriladigan qabul, suhbat, o'yinlar, ertalabki badan tarbiya kompleksining tartib raqami kiritiladi.[3] Markazlardagi faoliyatlarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, o'sha markaz

nomi va mavzu, unga kerakli jihozlar yoziladi. Markazlardagi faoliyatlar o'zgaragan holatlarda bu joy bo'sh qoladi. Umumiy guruh bo'lib ishlash bu frontal mashg'ulot bo'lib, unga nutq o'stirish, matematika, savodga o'rgatish, rus va o'zbek tillari, ingliz tili, jismoniy tarbiya hamda musiqa mashg'ulotlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar bilan kelishgan holda ish hujjatlari yuritiladi. Bundan tashqari hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti ish hujjatlarini ancha qisqartirilgani, tarbiyachilarga ancha yengilik va bolalar bilan ko'proq mashg'ulotlarni o'tishga, bolalar uchun usha vaqtni ajratilgani bu tarbiyachilarga qo'l keladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ish rejasi asosida kunlik, haftalik, oylik, yillik mavzular rejalashtirilib borilgan bo'ladi.

Pedagogik jarayoni rejalashtirish turlari.

Yillik reja, istiqbolli reja, tarbiyachining kalendar rejasi.

Maktabgacha talim yoshdagi bolalarda qanday o'zgarishlar bo'layotganini bolalarning rivojlanish xaritasida yuritib boriladi. Har bir yosh guruh uchun alohida yuritiladi va har bir bola uchun bir yilda uch marta: o'quv yillining boshida, o'rtasida, oxirida to'ldiriladi.[4]

Xulosa:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagoglarni ish hujjatlari bolalarni hayotini to'g'ri tashkil eta olish uchun asos pedagogik faoliyatni rejalashtirishdir, uning yordami bilan pedagoglar o'quv vazifalarni, bolalar bilan o'zaro munosabat shakllarini mavzuviy-rivojlantirish muhitga kiritilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni aniqlaydi. [5] Rejalashtirish tarbiyada yakka yondashuvni amalga oshirish, bolalarda axboratli va jismoniy stressni kamaytirish imkonini beradi. Rejalashtirilgan ish rejasining bajaralishi tahlil qilish har bir bolaning, rivojlanish dinamikasini kuzatishga va buning uchun eng yaxshi sharoitlarni aniqlashga olib keladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi bu bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.[6]

Albatta, bola bu dunyo, bola bu hayot mazmunining ajralmas qismidir. Bolalar o'z tabassumlari orqali insonlar qalbida hayotga, yashashga bo'lgan qiziqishni uyg'otadilar. Ko'zlarida ezgulik va mexr qalqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldirq och misolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. □ Ta'lim to'g'risidagi Qonun[T:1997].
2. □ Maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizom[T:2017].
3. □ Ilk qadam □ o'quv tasturi[T:2022]
4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ish hujjatlarini yuritilishi.
5. <https://fayllar.org/maktabgacha-talim-tashkiloti-uslubchisining-ish-hujjatlari-va.html>
6. F.Qodirova maktabgacha pedagogika darslik

